



FORS VA TOJIK TILLARINING FARQLI TOMONLARI

Toshboyev Bahrom Saidkulovich

Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi,
Samarqand, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5547986>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-sentabr 2021
Ma'qullandi: 25-sentabr 2021
Chop etildi: 30-sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Til, Fors, Tojik, madaniyat,
adabiyot, millat, milliy til,
eroniy xalqlar, dariy tili.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fors va tojik tillarining o'xshash va farqli tomonlari o'zaro qiyoslanib, misollar asosida ko'rsatilgan. Shuningdek, bu ikki tilning asrlar davomida bir-biri bilan qarishganligi, bu tillarda so'zlaydigan xalqlarning madaniyati va adabiyoti o'zaro chanbarchas ekanligi ko'rsatilib, shu nuqtai nazardan qaysi jihatlari bilan biri biridan ajralib turish masalasi o'rtaga tashlangan va ma'lum darajada ochiqqlangan.

Til millat borligini ifodalovchi, asoslovchi bo'g'ini bo'lib, xalqlarning yo'qolishi bilan millat ham foniylikka yuz tutadi. Xolis va mustaqil tilsiz hech qaysi millat mavjud bo'la olmaydi. Dunyoda qancha e'tirof etilgan millat bo'lsa, albatta, ularning alohida muloqot tillari mavjud va aynan til millat vakillarining eng muhim aloqa vositalari sifatida xizmat qiladi. Til ham, millat ham o'zgarish, yangilanish, yuksalish va yo'qolish xususiyatlariga ega. Insoniyatning bir necha ming yillik tarixi davomida qancha-qancha yangi tillar paydo bo'ldi va bu tillarning rivojlanib milliy til darajasiga ko'tarilishi yangi millatlarning e'tirof etilishiga sabab bo'lgan bo'lsa, ayrim tillarning oradan yo'qolishi bu tillarda so'zlashuvchi millat vakillarining ta'rixga aylanishini ta'minladi.

Shunday tillar borki, millat vakillarini ming yilliklar dovonidan o'tkazadi. Fors-

tojik tili ham asrlardan buyon eroniy xalqlarning mavjudlik va mashhurlik nishonasi bo'lib kelgan. Ushbu tillar hozirgi kunga kelib turli davlat va mintaqalarda rasmiy davlat tili sifatida qaror topganidan qat'iy nazar, tarixan bir til hisoblanadi va bugungi kunda ham o'zaro faol aloqalari umummilliy va dunyoviy ahamiyat kasb etadi.

Akademik Muhammadjon Shukurov bu borada shunday fikrlarni qayd etib o'tadi: "Zaboni forsi, ki yak vaqtho dar tamomi qit'ai Osiyo olamafrozi jahongiri bud, az solhoi bist ba in taraf ro'z ba ro'z ba faromo'shivu tanazzul ro'y ovard. In hodisa baroi xalqi tojik bo on tamom shud, ki on "reshahoi mavjudiyati millii moro sust kard". (4.14) (Tarjimasi: Fors tili garchi bir paytlar butun Osiyo qit'asida jahongirlik maqomida edi, yigirmanchi yillardan buyon kundand-kunga unutilish va tanazzulga yuz



tutdi. Bu hodisa tojik xalqi uchun shu bilan yakun topdiki, bu “bizning mavjudlik ildizlarimizni susaytirdi”)

Olim quyidagi fikrlarida bugungi kunda ham fors, tojik va dariy tillari bir-biri bilan faol aloqada ekanligi, soʻz olib, soʻz berishi takidlab, bu holatni “oʻzimizning boshlanmamiz va ibtidoaga yuz tutish” deb eʼtirof etadi va “hatman qayta bunga odatlanishni zarur” deb hisoblaydi.

“...mardumi forsizabon imroʻz ham ba yak zabon surat megirand va az in, ki dar qonuni zaboni tojiki, dar qavsayn forsi doxil kunonidaand, ba hamin maʼni ast.

Masalan, imroʻz az mardumi darizaboni Afgʻoniston va Eroniyon “kalimavu ibora va va istilohoti rextavu sufta, taʼbirhoi zeboi purmaʼno, qolibhoi xushsoxte megirem. In kori mo chunin maʼno dorad, ki ba sargahu ogʻozgohi xud roʻy ovardaem. On chizhoru, ki yak vaqtho moli xudi mo bud, vale solhoi poydorii tafakkuri primitiv va az kasodivu karaxti ba bodi faromoʻshi dodem, holo boz qadrshinosi karda, digarbora az xud menamoem, tabʼi xudro bo onho odat mekunonem... Hatman dubora ba onho xoʻ giriftan zarur ast”. (4.10)) (Tarjimasi: Forsiyzabon xalqlar bugun ham (uch nomdagi) bir tilda muloqot qiladilar va bu tillar rivojlanishi fors-tojik (qadimgi) tilining qonuniyatidan sarchashma oladi. Hozirda tojik tilini ayrim izohlarda qavs ichida fors tili deyilishi shu maʼnoda ishlatiladi.

Misol uchun, bugun Afgʻonistonning dariyzabon xalqi va Eronning forsiyzabon xalqining tilidan soʻz va iboralar, turli birikmalar va atamalar, chiroyli va maʼnoli qoliblarni olamiz. Bizning bu ishimiz shunday maʼno beradiki, biz oʻzimizning boshlanmamizga yuz tutganmiz. Boshqacha

qilib aytganda, bir paytlar oʻzimizniki boʻlgan, ammo primitiv tafakkuri ustuvor boʻlgan bir davrda karaxtlik va kasodlik tufayli qoʻldan boy bergan boyligimizni bugungi kunda yana qadrlab, qaytadan oʻzlashtiramiz va taʼbimizni bunga odatlantiramiz... Bunga qayta odanlanishimiz juda zarurdir).

Tojik donishmandlari va xalqi uchun, shuningdek mazkur mavzuda bahs yurituvchi olimlar uchun bu dalillar katta ahamiyatga egadir. Zero fors, tojik va dariy tillarining oʻzaro aloqalari juda bahsli va ahamiyatga ega boʻlgan masala hisoblanadi. Hozirda 3 ta milliy va davlat tili sifatida eʼtirof etilayotgan va aslida “bir onaning uch farzandi” boʻlgan mazkur tillar haqida soʻz yuritishning oʻzi katta masʼuliyat, oʻrganish, bilim va tajribani talab etadi.

Ahmad Ali Rajoiy oʻzining “Buxoro lahjasi” (“Lahjai Buxoroi”) asarining muqaddimasida (13-bet) buxoroliklar (tojik) tilining sofligi haqida yozgan fikrlarini iqtibos keltiramiz: “Naxust on, ki zaboni forsii tojiki yake az lahjahoi fasehi forsi buda, ba zaboni adabii Eron besh az lahjahoi digar qarobat dorad. Inchunin bisyore az lugʻathoi faseh va shirini forsii dar mo faromoʻshshudaro az in kitobho yaftan mumkin ast, ki ba in vosita dar rohi toza va sof kardani zaboni forsi yori metavon rasonid...” (Tarjimasi: Birinchidan, tojik tili (qadimgi) fors tilining keng qamrovli lahjalaridan boʻlib, bugungi Eronning adabiy tiliga boshqa lahjalardan koʻproq yaqinligi bor. Shuningdek, fors tilining bizlarda unutilib ketilgan koʻplab chiroyli lugʻat va tasvirlarini bu kitoblardan topish mumkinki, tojik tilida saqlangan lugʻatlarga murojaat qilish, fors tili sofligini saqlashga yordam beradi).



Lekin shuni ham qayd etish joizki, ushbu eroniy xalqlar orasida turli sabablarga ko'ra o'tgan 5-6 asr davomida ilmiy, adabiy, ijtimoiy va siyosiy aloqalar ancha susayib, tarixda bir va yagona bo'lgan til va adabiyoti alohida nomlar oldi va alohida rivojlandi. Shu sababdan tilshunoslikning barcha qismlarida sezilarli o'zgarishlar yuzaga kelgani e'tiborga molikdir. Biz ham quyida fors va tojik tillarining ayrim farqlari xususida qiyosiy tarzda o'z fikrlarimizni bayon etamiz.

Ma'lumki, o'tgan 5-6 asr davomida fors va tojik tillarining so'z va atamallari, morfologik va fonetik shakllar, shuningdek, maqollar, ibora va birikmalar shakllarida ayrim o'zgarishlar yuzaga keldi. Fonetika sohasidagi ayrim o'zgarishlarga e'tibor beradigan bo'lsak, tojik tilidagi "i" bog'lovchisi fors tilida "e" shaklida va aksincha ayrim holatlarda "e" tovushi "i" shaklida ifodalanadi. Mazkur holatlarda fors tilida ayrim so'zlardagi aslan shakli turli xil bo'lgan so'zlar shakldoshlik xususiyati kasb etadi: sher -yovvoyi hayvon va shir -sut so'zlari bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Shu kabi tojik va dariy tilidagi ayrim so'zlarda "a" tovushi "e" shaklida talaffuz qilinadi: "ba" bog'lovchisi "be" shaklida, "ba xona" (uyga) "bexona", xurda-xurde va boshqalar. Tojik tilida "ba" qo'shimchasi "da" o'rin-payt kelishigi ma'nosini bersa, "be" qo'shimchasi "siz" sifat yasovchi qo'shimcha bilan bir xil ma'no beradi. Bu dalil isbotlaydiki, ayrim so'z va qo'shimchalarni aynan fors tilidagi shakli tojik tilida qo'llanilsa, batamom boshqa ma'no anglatadi.

"ba" (yoki forscha "be") bog'lovchisining tarixiy shakllariga nazar soladigan bo'lsak, "bu" shaklida ekanligi ma'lum bo'ladi. "Hidoyatul muallimin"da b

tovushining yuqorisida tutuq belgisi qo'yilishiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunda tojik tilining janubiy lahjalarida shunday shakldagi talaffuzni uchramiz: bubin-b'bin (ko'rgin), buxur-b'xur (yegin), bute - b'te (bergin), meburavad-meb'ravad va boshqalar.

Bu borada Mehduxti Muin Ali Ashrafii Sodiqiyga nisbatan e'tiroz bildiradi: "Guzorish" so'zi hozirgi fors tilida "gozorish" shaklida yoziladi, ammo qadimda "guzorish" shaklida bo'lgan. "Farhangi Muin" kitobida (55 bet) ta'kidlanishicha sakkiz o'rinda "o" tovushi "u" shaklida talaffuz qilinadi.

So'zlarning tuzilishiga e'tibor beradigan bo'lsak ham hozirgi fors, tojik va dariy tillari o'rtasida ayrim tafovutlar yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Masalan, tojik tilidagi ko'plab sodda fe'llar fors tilida qo'shma shaklga ega:

Bextan - elak kardan (elamoq)

Ro'ftan - joru kardan (supurmoq)

Gurextan - firor kardan (qochmoq)

Shuningdek, ayrim tarixan bir bo'lgan so'zlarning fors va tojik tilida bugungi kunda turli ma'nolar kasb etishi va hatto qarama-qarshi ma'nolar berishini kuzatish mumkin. Jumladan, "daromadan" shaklidagi so'z tojik tilida kirmoq (doxil shudan) ma'nosini anglatadi, fors tilida aynan shu shakl chiqmoq (xorij shudan) ma'nosini anglatadi. "Baland" so'zi tojik tilida past so'ziga qarama-qarshi ma'noda ishlatilsa, fors tilida "uzun" ma'nosini beradi.

Soibning quyidagi baytida buning misolini ko'ramiz:

Mahv shu nuri xirad, to shud maro savdo baland,

Ro'zho ko'toh gardid chun shavad shabho baland.



(Ma'nosil: Menda savdo (ishq, devonalik) yuqorilagani, ko'paygani sayin, xiraqning, aqlning nuri mahv bo'ldi, yo'qoldi. Tunlar uzun bo'lganida kunlar qisqaradi)

Yuqoridagi baytda "baland" so'zi bir mavrida "ko'p", "yuqori", "yuqori darajaga chiqmoq" ma'nosini ifodalayotgan bo'lsa, ikkinchi misrada "uzun" ma'nosida kelgan.

"Kal" so'zi o'rniga fors tilida "качал" so'zi ishlatiladi va bu shakldagi so'z tojik tilida "cho'loq" ma'nosida keladi.

Yuqoridagi o'xshashlik va tafovutlar nafaqat fors va tojik tillarining asl so'zlarida, balki olinma so'zlarida ham kuzatish

mumkin. Tojik tilida yonma-yon yashash natijasida o'zbek tilidan so'zlarning olinishini kuzatadigan bo'lsak, fors tilida turk tilidan kirib kelgan so'zlarni kuzatish mumkin. Evropa va xalqaro tillardan olingan aynan bir xil shakldagi so'zlar ikki tilda xalqlarning lahjaviy talaffuzidagi tovush o'zgarishlari bilan ishlatiladi.

Shunday qilib, bugungi kunda fors, tojik va dariy tillari orasida sezilarli tafovutlar vujudga kelgan bo'lib, mazkur o'zgarishlar ushbu tarixan bir bo'lgan ushbu tillarni bugungi kunda qiyosiy tarzda tadqiq va tahlil qilishni taqozo etadi.

References:

1. Qosimova M. N. Ta'rixi zaboni tojik. – Dushanbe: "Maorif" 2003.
2. Zehni T. Az ta'rixi leksikai zaboni tojiki. – Dushanbe: "Donish" 1987.
3. Muhammad G'iyosuddin. G'iyosul lug'ot. – Dushanbe: "Adib" 1987.
4. Xudoynazar Asozoda. Adabiyoti forsi va se shoxai on. – Dushanbe: "Maorif" 1991.
5. Farhangi zaboni tojiki. Iborat az 2 jild. Jildi 1. Tojikiston – 1961.